

**BUYRUQ**

2026-yil 15-iyun

TOSHKENT

304-H-son

“Jamiyatda korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to‘g‘risida xabar bergan xodimlarni rag‘batlantirish hamda ularning ta‘qib qilinmasligi kafolatlari to‘g‘risida”

O‘zbekiston Respublikasining Prezidentining 2022-yil 12-yanvardagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PQ-81-sonli qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrda "Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan shaxslarni rag‘batlantirish tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi 829-son qarori ijrosini ta‘minlash, shuningdek, Jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini oshirish, korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasi faoliyatini "ISO 37001 korrupsiyaga qarshi kurashishning menejment tizimi" xalqaro standartiga muvofiqligini ta‘minlash hamda Jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashishga munosib hissa qo‘shgan xodimlarni rag‘batlantirish hamda ularning huquqiy va qonuniy manfaatlarini himoya qilishning samarali mexanizmlarini joriy etish maqsadida **buyuraman**:

1. "O‘zbekiston temir yo‘llari" aksiyadorlik jamiyatining "Jamiyatda korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to‘g‘risida xabar bergan xodimlarni rag‘batlantirish hamda ularning ta‘qib qilinmasligi kafolatlari to‘g‘risida"gi Reglament 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Jamiyatning tashkiliy tuzilmasidagi yuridik maqomga ega bo‘lgan korxonalar va tashkilotlar rahbarlari:

10 kun muddatda "Jamiyatda korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to‘g‘risida xabar bergan xodimlarni rag‘batlantirish hamda ularning ta‘qib qilinmasligi kafolatlari to‘g‘risida"gi Reglamentiga muvofiq ichki hujjat ishlab chiqilib, tasdiqlansin hamda tatbiq etilishi ta‘minlansin.

3. Boshqaruv raisi huzuridagi kotibiyat, Korrupsiyaga qarshi kurashish boshqarmasi bilan birgalikda mazkur buyruqni elektron shaklda Jamiyat tizimidagi barcha korxonalar va tashkilotlarga yetkazilishini ta‘minlasin.

4. Mazkur buyruq ijrosini nazorat qilish Jamiyat boshqaruv raisining o‘rinbosari J.Z.Yusupov zimmasiga yuklatilsin.

Boshqaruv raisi**Z.G‘. Narzullayev**